

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 450 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Imomqulov To'liqin Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalaridan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	
Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	




Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution.....	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili.....	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida.....	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны.....	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi.....	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане.....	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (PhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar.....	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayanch doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi.....	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari.....	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения.....	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari.....	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана.....	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish.....	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni.....	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики.....	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	
O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея.....	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	



Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari.....	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli.....	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi.....	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba.....	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari.....	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili.....	374
Xatamov Nurbek Ochildiyeovich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала.....	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами.....	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili.....	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish.....	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	
Catalyzing Sustainable Consumer Choices: A Study of Retail Advertising Strategies for Green Development.....	425
Karimova Nafisabonu Djamshidovna , PhD	
Temir yo'l transport tarmog'ining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	433
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich , DSc.	
Tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat siyosatining yevropa amaliyoti.....	439
Askarov Zoxidjon Sadikjanovich , Yuridik fanlar falsafa doktori	
Влияние антикоррупционного просвещения на национальную идентичность государства.....	445
Мохоров Дмитрий Анатольевич , кандидат юридических наук, доцент	



TASHQI MEHNAT MIGRASIYASI SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING YEVIROPA AMALIYOTI



Askarov Zoxidjon Sadikjanovich

Yuridik fanlar falsafa doktori, Toshkent Davlat yuridik universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tashqi mehnat migratsiyasi sohasida Yevropa Ittifoqi davlatlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, ushbu sohada olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda bu boradagi mavjud normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili ayrim Yevropa davlatlarning tajribasi misolida atroflicha o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Migratsiya jarayonlari, Yevropa Ittifoqi, mehnat migranti, "Yining havo rang kartasi", migratsiya siyosati, integratsiya jarayonlari, noqonuniy migratsiya.

EUROPEAN PRACTICE OF STATE POLICY IN THE FIELD OF EXTERNAL LABOR MIGRATION

Abstract: This article reflects in detail the reforms carried out in the EU countries in the field of external labor migration, the main directions of state policy in this area, as well as the analysis of existing regulatory legal documents in this area on the example of the experience of individual European countries.

Key words: Migration processes, European Union, migrant worker, «EU color map», migration policy, integration processes, illegal migration

ЕВРОПЕЙСКАЯ ПРАКТИКА ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ В СФЕРЕ ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

Аннотация: В данной статье подробно изучены реформы, проводимые в странах ЕС в сфере внешней трудовой миграции, основные направления государственной политики в этой сфере, а также анализ существующих нормативных правовых документов в этой области на примере опыта отдельных европейских стран.

Ключевые слова: Миграционные процессы, Евросоюз, трудовой мигрант, «цветная карта ЕС», миграционная политика, интеграционные процессы, нелегальная миграция.

KIRISH

Bugungi kunda, BMT ma'lumotiga ko'ra, Yevropa davlatlarida ikki million mehnat migrantlari mavjud¹. Dunyoning har bir davlati, shu jumladan, Yevropa mamlakatlari ham migratsiya oqimlarining o'ziga xos xususiyatlariga ega. Bu Yevropa Ittifoqining umumiy talablari, shuningdek, quyidagi omillar bilan bog'liq: mamlakatning tarixiy, geografik, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, etnik o'ziga xosligi. Bu o'ziga xoslik tabiiy ravishda Yevropa Ittifoqi davlatlarining migratsiya siyosati va qonunchiligida, shuningdek, mehnat migrantlariga nisbatan huquqni qo'llash amaliyotida o'z ifodasini topadi.

Migratsiya siyosatini tartibga soluvchi Yevropa qonun hujjatlariga, 1990-yildagi Dublin konvensiyasi, 2001-yil 15-martdagi 539-sonli Nizom, Migratsiya siyosati sohasida Yevropa Ittifoqi strategiyasi bo'yicha Gaaga dasturi, 1977-yildagi mehnat migrantlarining huquqiy maqomi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi va boshqalar kiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

T. Y. Xabrievaning fikricha, aktlarning birlashuv darajasiga qarab migratsiya munosabatlarini tartibga solishning bir qancha modellarini ajratish mumkin. Shunday qilib, umumiy huquq oilasiga mansub davlatlar – Buyuk Britaniya va AQSh qonunchiligi kamroq konsolidatsiyalangan va romano-german huquqiy oilasi mam-

1 Qarang: Mehnat migratsiyasi: O'zbekistonni Yaponiya va Janubiy Koreya kelajagi kutuyaptimi? / URL: <https://sputniknews-uz.com/20201116/Menat-migratsiyasi-zbekistonni-Yaponiya-va-Zhanubiy-Koreya-kelazhagi-kutyaptimi-15415881.html>, – murojaat sanasi 22.11.2022



lakatlarida – Fransiya va Germaniyada ko'proq konsolidatsiyalanganidir. Shu bilan birga, har bir mamlakat o'zlari manfaatdor bo'lgan ma'lum immigrantlar kasblarining ro'yxatini belgilaydi².

Mutaxassislar fikricha, Yevropaning tarixiy rivojlanishida migratsiya siyosatining to'rtta modelini ajratib ko'rsatish mumkin:

- a) imperiya modeli, bu davlatlarning qat'iy yagona siyosat olib borishidan iborat. Bu siyosat Buyuk Britaniya, Avstriya-Vengriya va Usmonli imperiyalari tomonidan olib borilgan;
- b) umumiy tarixiy ildizlarga, milliy o'zlikka, madaniyatga, tilga, etnik jamoaga asoslangan etnik model. Ushbu siyosat Germaniya davlati tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, u yerda ota-onalardan biri nemis bo'lmasa, chet elliklar ko'pincha fuqarolikdan mahrum qilinganlar. Fuqarolik maqomini nemis ko'chmanchilarining avlodlari (Aussiedler) olganlar;
- d) siyosiy jihatlar hisobga olingan respublika modeli. Shunday qilib, agar ular ma'lum siyosiy talablarni qabul qilgan va bajargan bo'lsa, fuqarolarga fuqarolik berilgan. Masalan, Fransiya "tuproq qonuni" qabul qilingandan keyin Fransiya tug'ilgan har bir chaqaloq fuqarolikni olishi mumkin edi;
- e) jamiyatdagi madaniy tafovutlarga yo'l qo'yilishi g'oyasiga asoslangan multimadaniy model. Chet elliklar mehnat bozori ishtirokchilari sifatida qarorlar qabul qilishda ovozga ega hisoblanganlar³.

Yuqori malakali mehnat migrantlarining Yevropa Ittifoqida bo'lishini qonuniylashtirish maqsadida bu yerda "oilani birlashtirish" huquqi o'rnatilgan bo'lib, unda mehnat migranti besh yil amalda mamlakatda yashaganidan so'ng "uzoq muddatli Yevropa Ittifoqi rezidenti" maqomini olishi mumkin. Bu ishlashni davom ettirish uchun imkoniyatlar yaratadi⁴.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi davlatlarining migratsiya siyosati quyidagilarga qaratilgan:

- noqonuniy migratsiyani istisno qilishni ta'minlaydigan migratsiya siyosatini shakllantirish;
- yuqori malakali ishchilarning mamlakatga kirishi uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish;
- qabul qiluvchi davlatga kirib keluvchi va doimiy yashash uchun qolganlarning integratsiyalashuv jarayonini takomillashtirish;
- migratsiya, etnik muammolarni hal qilish, yagona huquqiy tizimni tashkil etish va integratsiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.

Nemis olimi Ulf Rinne migratsiya siyosatining o'zaro bog'liq bo'lgan ikki turini ajratib ko'rsatadi:

- 1) tanlov va tartibga solish, ular orqali migrantlarning mamlakatga kirishi, chiqishi va bo'lishi qoidalarini o'rnatiladi. Ushbu turdagi migratsiya siyosati qabul qiluvchi mamlakatda migrantlarning soni va kasbiy sifatini boshqarishga qaratilgan. Immigratsiya mamlakatlari migrantlarni jalb qilishning turli mexanizmlaridan foydalanadi: ball tizimi, mehnat kvotasi va boshqa qonuniy cheklovlar va/yoki imtiyozlar;
- 2) yangi migrantlar tomonidan ijtimoiy natijalarga erishishga qaratilgan integratsiya siyosati va dasturlari. Migratsiya siyosatining ushbu turiga quyidagilar kiradi:
 - a) kutib oluvchi dasturlar;
 - b) til o'rgatish;
 - d) mehnat bozori;
 - e) diskriminatsiyaga qarshi siyosat⁵.

1977-yilda imzolangan Mehnat migrantlarining huquqiy maqomi to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi mehnat migrantini "bir Ahdlashuvchi Tomon tomonidan o'z hududida haq to'lanadigan ishlarni bajarish uchun yashashga ruxsat berilgan ikkinchi Ahdlashuvchi Tomon fuqarosi" deb ta'riflaydi. Unga ko'ra, mehnat migranti – bu boshqa davlat tomonidan o'z hududida haq to'lanadigan ishlarni bajarish uchun yashashga ruxsat berilgan ikkinchi

2 Qarang: Хабриева Т. Я. Миграционное право России: теория и практика. - М., 2008. - С. 259.

3 Qarang: Lahav G. Immigration and Politics in the New Europe: Reinventing Borders. Cambridge: Cambridge University Press. 2004 P. 210.

4 Qarang: Direktiva Soveta YeS ob uchrejdennii «Evropeyskoy goluboy karty», 2009 // URL: http://eulaw.edu.ru/documents/legislation/svob_pereadv/blue_card.htm, – murojaat sanasi: 21.04.2023.

5 Qarang: Rinne U. The Evaluation of Immigration Policies. IZA DP № 6369. Forschungsinstitut zur Zukunft der Arbeit. February 2012. 27 r.



davlat fuqarosi hisoblanadi. Shu bilan birga, Konvensiya ishtirokchilari o'z hududida mehnat migrantlari va ularning oila a'zolariga ijtimoiy ta'minot sohasida o'z fuqarolari bilan bir xil rejimni, shu jumladan, ijtimoiy va tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash majburiyatini oladilar⁶.

Yevropa davlatlarining mehnat migratsiyasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) noqonuniy migratsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish;
- 2) bandlik amalga oshirilishi kerak bo'lgan mutaxassisliklarning (bo'sh ish o'rinlarining) davlat ro'yxatini tasdiqlash;
- 3) malakali mutaxassislarni saqlab qolish va o'z vataniga qaytishga rag'batlantirish;
- 4) milliy va mintaqaviy darajada migratsiya siyosatini uyg'unlashtirish;
- 5) moslashish siyosati;
- 6) ikki fuqarolik huquqini olish va boshqalar.

Shu bilan birga, ichki mehnat bozorini migrantlardan himoya qiluvchi mexanizm ikkita o'tish davrini o'z ichiga oladi:

- a) migrantlarni qabul qilishning turli shartlarini vaqt va mamlakatlar bo'yicha ("eski" va "yangi" Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlar) belgilaydigan vaqt doirasi;
- b) cheklovlar (ishlashga ruxsatnomani oldindan olish va mehnat munosabatlarini ro'yxatdan o'tkazish).

O'tish davrining davomiyligi va soliq yig'ish miqdori har bir davlat tomonidan mustaqil belgilanadi.

Misol uchun, qabul qiluvchi davlat ma'lum yoshdagi, sog'lig'i yaxshi va jinoiy javobgarlikka tortilmagan migrantlarga qiziqish bildirishi mumkin. Bir qator mamlakatlar yuqori malakali ishchilar va yoshlarning immigratsiyasini rag'batlantiradi. Ko'pgina Yevropa davlatlari mehnat resurslarining bandlik holati, uy-joy bozori, import qiluvchi mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni hisobga olgan holda immigratsiya kvotasini tasdiqlaydi. Ayrim mamlakatlar migrantlar oqimini kamaytirish maqsadida ma'lum bir davlatlar uchun miqdoriy cheklovlar o'rnatadilar, mazkur davlat migrantlarining mamlakatda qolish muddatiga cheklovlar qo'yadi. Bir qator davlatlar mehnat qilayotgan mamlakatga valyuta mablag'larini jalb qilish maqsadida emigrantlar uchun yuqori foiz stavkasi bo'yicha valyuta hisobvaraqlarini ochadi, mehnat migrantlarining ish haqining o'z mamlakatiga o'tkazishi kerak bo'lgan ulushini belgilaydi⁷.

Yevropa Ittifoqi quyidagi tamoyillarga asoslangan noqonuniy migrantlar mehnatidan foydalanishni cheklash qoidalarini doimiy ravishda takomillashtirib boradi va qattiqlashtiradi. Birinchidan, xorijliklarni ishga olishdan oldin ish beruvchilar bajarishi kerak bo'lgan ma'muriy talablar mavjud. Ikkinchidan, huquqbuzarlarga nisbatan da'vo arizalarini ko'rib chiqish tartiblari uyg'unlashtirilgan. Uchinchidan, noqonuniy mehnat migrantlarini ishga jalb qilish holatlarini aniqlash bo'yicha yillik auditdan o'tkaziladigan korxonalar soni 2 foizdan 10 foizga oshirilgan⁸.

Malakali mutaxassislar va ularning oilalari uchun Yevropa Ittifoqining ma'lum bir davlatida ishlash huquqiga ega bo'lish imkonini beruvchi yashash uchun ruxsatnomalarni "YIning havo rang kartasi" («Blaue Karte EU») berish amaliyoti keng tarqalgan⁹. Ushbu amaliyotning maqsadi uchinchi mamlakatlardan, Yevropa Ittifoqiga kirmaydigan mamlakatlardan yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishdan iboratdir.

XX asr oxirigacha Yevropaga malakali migrantlarni jalb qilish siyosati cheklovchi xarakterga ega edi. Biroq, XXI asrning boshlarida inson kapitalini jalb qilish bo'yicha AQShga yetib olishga urinayotgan Yevropa davlatlari yuqori texnologiyalar, tibbiyot, menejment va boshqa sohalardagi mutaxassislar uchun vaqtinchalik migratsiya dasturlarini ishga tushirdilar. Mehnat migrantlari, agar ular ma'lum muddat ishlagan bo'lsa, mamlakatda doimiy yashash uchun ruxsat olish huquqini oldilar. Buyuk Britaniya va Germaniyada ma'lum darajadagi moliyaviy jamg'armaga ega yuqori malakali migrantlarga hech qanday maxsus ruxsatnomalarsiz mamlakatda bir yilgacha qolish va ish izlash imkonini beruvchi migratsiya dasturlari mavjud¹⁰.

Yevropa Ittifoqi migratsiya siyosatining asoslari 1999-yildagi Amsterdam kelishuvlarida shakllantirilgan bo'lib, unda uchinchi davlat fuqarolarining erkin harakatlanishi va yashash huquqi, viza qoidalar va uzoq mud-

6 Qarang: European Convention on the Legal of Migrant Workers, Strasbourg, 24. XI. 1977.

7 Qarang: Чугунова С. В. Регулирование легальной трудовой миграции из третьих стран по праву ЕС: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. - М., 2012. - С. 11 - 18.

8 Qarang: Жданов И. Надгосударственная практика управления миграционными процессами в ЕС // Власть. 2007. - №7. - С. 98-102.

9 Qarang: Европейская директива № 2009/50/EC от 25.05.2009 года.

10 Qarang: Borjas G.J. Increasing the supply of labour through immigration, measuring the impact on native-born workers. Center for Immigration Studies, 2004. - R. 5 - 6.



datli vizalar va yashash uchun ruxsatnomalar berish tartib-qoidalari standartlari, jumladan, oilalarni birlashtirish maqsadida, shuningdek, noqonuniy migrantlarni vataniga qaytarish shartlari to'g'risidagi qoidalar belgilangan. Yevropa migratsiya siyosatining tahlili shuni ko'rsatadiki, migratsiya muammolari milliy suverenitet sohalariga ta'sir qiladi va chuqur siyosiy lashgan. Mehnat migratsiyasi holatiga aksariyat Yevropa davlatlarining bir necha o'n yillar davomida "nol immigratsiya siyosati" qo'llanilishi ta'sir ko'rsatdi. Bu umumiy migratsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmashligiga olib keldi, ba'zida aniq muvaffaqiyatsizliklar mavjud edi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida migrantlarni moslashtirish mexanizmlari, jumladan, til o'rgatish va maxsus integratsiya kurslarini davlat tomonidan tartibga solinishi muhim o'rinni egallaydi. Masalan, Fransiya "qabul qilish va integratsiya bo'yicha shartnoma" mavjud bo'lib, u lingvistik tayyorgarlik, hayotning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va migrantga "ijtimoiy kurator" tayinlashni o'z ichiga oladi, Germaniyada esa maxsus "Migratsiya masalalari bo'yicha birlamchi maslahat xizmati" tashkil etildi. Barcha xarajatlar davlat tomonidan qoplanadi. Tartibga solishning qiziqarli chora-tadbirlari qatoriga, ish beruvchilarga birinchi o'rinda o'z mamlakatlardan qidirmasdan uchinchi mamlakatlardan kerakli ishchi kuchini yollash imkonini beruvchi mutaxassisliklar ro'yxatini davlat tomonidan tuzilishini ko'rsatishimiz mumkin¹¹.

Shu nuqtayi nazardan, Germaniya kabi mehnat migrantlarini ommaviy ravishda jalb etuvchi davlatlar, shuningdek, sobiq mustamlakalarining an'anaviy madaniy me'yorlari, lingvistik va boshqa aloqalarga asoslangan faol mehnat migratsiyasi jarayonlari bilan ajralib turadigan Fransiya kabi davlatlarning migratsiya siyosati tajribasi qiziqish uyg'otadi. Ularning tajribasini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan muhim ahamiyatga. Bu sizga migratsiya jarayonlarining rivojlanish tendensiyalari va xususiyatlarini aniqlash, mamlakatning migratsiya siyosatining mohiyatini tushunish, shuningdek, migratsiya siyosatini amalga oshirishda ular bilan o'zaro aloqalarni o'rnatish imkonini beradi.

Germaniyada 2005-yilda migratsiya qonunchiligiga kiritilgan tuzatishlar va migratsiya siyosatini isloh qilish natijasida migrantlar ulushi sezilarli darajada oshdi. Federal Mehnat va ijtimoiy ishlar vazirligi Germaniyada vaqtinchalik chet ellik ishchilarni integratsiya qilish siyosatini amalga oshirmoqda¹². Chet el fuqarolari, agar xalqaro shartnomalarda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, Germaniyada ishlash uchun Mehnat idorasidan ruxsat olishlari kerak. Shu bilan birga, alohida davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar mamlakatga mehnat resurslarini jalb qilishning muhim yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari va jo'natuvchi davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama kelishuvlar migrantning o'z mamlakatida (Germaniya va Marokash, Germaniya va Turkiya) ishlab topgan pensiya to'lovlarini amalga oshirish qoidalari belgilaydi. Mehnat migrantlarini ishga joylashtirish masalalari "Chet elliklarning Germaniya Federativ Respublikasi hududiga kirishi va bo'lishi to'g'risida"gi qonunda, Germaniyaning 1990-yilgi «Chet elliklar to'g'risidagi qonunni amalga oshirish to'g'risida» qonunida, "Federativ Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslarga ishlash uchun ruxsatnomalar berish to'g'risida"gi hukumat qarorlarida o'z aksini topgan.

Mehnati masalalari bo'yicha Federal idora "Bandlikka ko'maklashish to'g'risida"gi qonunning bajarilishini nazorat qiladi, mehnat bozoriga chet el ishchi kuchini qabul qilish, shuningdek, ishga ruxsatnomalar berish va chet el ishchi kuchidan noqonuniy foydalanganlik uchun ish beruvchilarga nisbatan sanksiyalarni tartibga soladi. Hududiy bandlik xizmatlari mehnat migratsiyasi sohasida davlat dasturlarini amalga oshiradi.

Germaniyada mehnat migrantlari bilan ishlash mexanizmi mehnat munosabatlari sohasida migratsiya siyosatini olib borishni ta'minlovchi tashkiliy, huquqiy, axborot va boshqa vositalar va muassasalar tizimidir. Uning asosiy belgilari: mehnat migratsiyasi sohasida institutlar va qonun hujjatlarining mavjudligi; noqonuniy mehnat migratsiyasiga qarshi kurashish; kontrabandachilarga va chet ellik noqonuniy ishchilar migratsiyasiga jalb qilingan ish beruvchilarga nisbatan sanksiyalar mavjudligidir.

Fransiyaning migratsiya sohasidagi davlat tizimining o'ziga xos xususiyati Fransiyaning Immigratsiya, integratsiya, milliy o'ziga xoslik va ijtimoiy rivojlanish vazirligiga (L'immigration, l'integration, l'asile et le developpement solidaire) qo'shimcha ravishda boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lmagan ikkita davlat organi: Integratsiya bo'yicha Oliy Kengash (Hukumatga bo'ysunadi, integratsiya siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish vazifalarini bajaradi) va Ijtimoiy yordam jamg'armasi (Mehnati va birdamlik vazirligi tarkibida ishlaydi, migrantlar uchun o'quv dasturlarini moliyalashtiradi va ularga imtiyozlar beradi) faoliyat yuritishidir¹³. An'anaga ko'ra, shartnoma asosida ishchi kuchini jalb qilish bo'yicha shartnomalar davlatning sobiq mustamlakalari – Mag'rib mamlakatlari bilan tuzilgan.

11 Qarang: Иванов А.Г. Государственное регулирование внешней трудовой миграции: опыт ЕС, Франции, Германии, США // Вестник Российского университета дружбы народов. – Серия: Политология. 2009, № 3. – С. 61 – 62.

12 Qarang: Менц Г. «Полезные» гастарбайтеры, обременительные беженцы и вторая волна сокращения социальных расходов: связь между миграцией и государством всеобщего благосостояния // Прогнозис. 2007. № 1 (9). – С. 2-15.

13 Qarang: Орешина Н.И. Административно-правовое регулирование противодействия незаконной миграции в зарубежных странах: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2010. – С. 53, 67-89.



Fransiyaning tub aholisi bilan teng bo'lgan migrantlarning huquqiy tengligi qonun bilan mustahkamlangan. Masalan, Chet elliklarning kirishi va bo'lishi va boshpana olish huquqi to'g'risidagi Kodeks, Immigratsiya va integratsiya to'g'risida 2006-yil 24-iyuldagi 2006-911-sonli qonunlar chet el fuqarolarining mehnatiga oid normalarni birlashtiradi, bu esa huquqni muhofaza qilishni sezilarli darajada osonlashtiradi. Fransiyaning migratsiya siyosati so'nggi paytlarda selektiv, qat'iy nazorat qilinadigan immigratsiya tomon rivojlanayotgan qat'iyligi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, ishonchsiz bo'lgan 26 mingga yaqin xorijliklarni mamlakatdan chiqarib yuborish uchun kvotalar tizimi joriy etildi. Fransiyada ishlashni xohlovchilar, ushbu mamlakatda yashayotgan fransuz fuqarolari va migrantlari mavjud bo'lgan tegishli bo'sh ish o'rinlariga ariza bermasligini isbotlashlari kerak¹⁴.

Yevropa Ittifoqi va bir qator postsovet mamlakatlari (Ukraina, Belarus, Moldova, Armaniston, Ozarbayjon va Gruziya) o'rtasida tuzilgan Sharqiy hamkorlik (EaP) loyihasini amalga oshirish tajribasi qiziqish uyg'otadi. Yevropa Ittifoqi o'z faoliyati doirasida hamkor mamlakatlarni migratsiya strategiyasini va ularning boshqaruv institutlarini mustahkamlash va amalga oshirishiga yordam beradi va moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi.

Shunday qilib, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida migratsiya holati va amalga oshirilayotgan tegishli siyosatning tahlili shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda u yerda ishlashga ruxsat berishda kvota tizimidan malakali migrantlarni tanlashning ball tizimi foydasiga voz kechish ketmoqda, chunki kvotalar tizimi bu "eskirgan tizim bo'lib, mehnat bozorining zarur ishchi kuchiga mavjud bo'lgan real ehtiyojlarini qondirmaydi" deb hisoblanadi¹⁵. Darhaqiqat, vaqtinchalik mehnat migrantlari sonini ko'rsatish amaliyoti o'zini oqlamaydi, kvotani asoslash mexanizmi esa aniq emas, amalda ularning hajmi ko'p hollarda tugamaydi.

Bir qator Yevropa mamlakatlarida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Ombudsman lavozimining ta'sis etilishi alohida e'tiborga loyiq, uning vazifasi migrantlar huquqlarini himoya qilish, migrantlarning Yevropa jamiyatiga kirib borishi va integratsiyasi bo'yicha takliflar ishlab chiqish, mehnat migrantlariga nisbatan kamsitishning oldini olish choralarini ko'rish, migratsiya holatini kuzatish va migratsiya siyosati samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Shu munosabat bilan migratsiya jarayonlarini tartibga solishning Yevropa amaliyotini tahlil qilish asosida mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishni yaxshilashga yordam beradigan quyidagi chora-tadbirlar va tartiblarni belgilab olishimiz mumkin:

- mehnat migrantlari uchun eng kam ish haqi chegarasini ma'lum darajada belgilash;
- mehnat migrantlarining oila a'zolarining kirish tartibini soddalashtirish;
- migrantlarni malakasiz va yuqori malakali ishchilarga ajratish, bu yuqori malakali ishchilarga qo'yiladigan talablarni soddalashtirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston nuqtayi nazaridan Yevropa davlatlari tomonidan - ishchi kuchi eksport qiluvchi mamlakatlarga amalga oshirilayotgan iqtisodiy yordam dasturlari alohida e'tiborga loyiq. Bu dasturlar asosan mehnat migrantlari donor-mamlakatlari va ularni qabul qiluvchi davlatlar o'rtasida migrantlar vatanida yangi ish o'rinlari yaratishga ko'maklashish bo'yicha shartnomalar tuzish orqali amalga oshiriladi. Aftidan, O'zbekiston tomonidan Yevropaning yetakchi davlatlari (birinchi navbatda, Germaniya, Fransiya, Italiya va h.k.) bilan bunday shartnomalarni tayyorlash va imzolashga qaratilgan aniq ish rejasini ishlab chiqish zarur. Bugungi kunga kelib, bunday ishlar qisman, faqat alohida mamlakatlar (Polsha, Germaniya) bilan olib borilmoqda va bu borada jiddiy yutuqlar mavjud emas.

Misol uchun 2017-2018-yillar mobaynida o'sha vaqtdagi O'zbekiston Respublikasining bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan "O'zbekiston Respublikasi bilan Germaniya Federativ Respublikasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini Germaniya Federativ Respublikasi hududida uyushgan holda ishga joylashtirish to'g'risida"gi Bitim loyihasi ishlab chiqildi va diplomatik kanallar orqali chet el tomoniga yuborildi. Biroq Germaniya tomonidan alohida davlatlarga ustunlik berish Jahon Savdo Tashkiloti (VTO) tamoyiliga zidligi sabab, mazkur hujjatni imzolash yuzasidan rad javobi olindi.

XULOSA

Umumiy xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari migratsiya masalalarini turli huquqiy vositalar bilan hal qilishga intilmoqda, migrantlarni tanlash, bandlik masalalarida milliy manfaatlarni himoya qilish bilan va mehnat bozori sohasida yuzaga kelgan vaziyatga bevosita bog'liqdir. Ta'kidlash joizki, migratsiyaga oid qonun hujjatlarini birlashtirishda mazmunana Yel mamlakatlarining milliy qonunchiligini o'zida ifoda etgan umumevropa aktlari muhim rol o'ynaydi.

14 Qarang: Громцев О.В. Политические и правовые аспекты регулирования трансграничной трудовой миграции: сравнительный опыт России и стран Западной Европы: дис. ... канд. полит. наук. С.-Петербург, 2015. - С. 142 - 143.

15 Денисенко М.Б., Хараева О.А., Чудиновских О.С. Иммиграционная политика в Российской Федерации и странах Запада: аналитический сборник. М., 2003. С. 12.



Shuni ta'kidlash lozimki, Yevropa davlatlariga mehnat resurslarini jalb qilishning muhim kanali Yevropa Ittifoqi mamlakatlari va jo'natuvchi davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama kelishuvlar bo'lib hisoblanadi. Bugungi kundagi umumiy migratsiya holati va va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida bu borada amalga oshirilayotgan tegishli siyosat tahlili, ushbu davlatlarda malakali migrantlarni tanlashda ishlashga ruxsat berishda kvota tizimidan ball tizimi foydasiga voz kechish ehtimoli borligini ko'rsatadi. Balli tizimning asosiy strategiyasi mezbон davlat ko'proq manfaatdor bo'lgan, yuqori malakaga ega bo'lgan va qabul qiluvchi mamlakatda tezda moslashish qobiliyatiga ega bo'lgan migrantlarni tanlashdan iborat. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolarini ushbu mamlakatlarga mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun yuborishda, mazkur holatga alohida ee'tibor qaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Денисенко М.Б., Хараева О.А., Чудиновских О.С. Иммиграционная политика в Российской Федерации и странах Запада: аналитический сборник. М., 2003. С. 12.
2. Директива Совета ЕС об учреждении «Европейской голубой карты», 2009 // URL: http://eulaw.edu.ru/documents/legislation/svob_peredv/blue_card.htm, – мурожаат санаси: 21.04.2023.
3. Громцев О.В. Политические и правовые аспекты регулирования транснациональной трудовой миграции: сравнительный опыт России и стран Западной Европы: дис. ... канд. полит. наук. С.-Петербург, 2015. - С. 142 - 143.
4. Европейская директива № 2009/50/ЕС от 25.05.2009 года.
5. Жданов И. Надгосударственная практика управления миграционными процессами в ЕС // Власть. 2007. - №7. - С. 98-102.
6. Иванов А.Г. Государственное регулирование внешней трудовой миграции: опыт ЕС, Франции, Германии, США // Вестник Российского университета дружбы народов. – Серия: Политология. 2009, № 3. - С. 61 – 62.
7. Менц Г. «Полезные» гастарбайтеры, обременительные беженцы и вторая волна сокращения социальных расходов: связь между миграцией и государством всеобщего благосостояния // Прогнозис. 2007. № 1 (9). - С. 2-15.
8. Орешина Н.И. Административно-правовое регулирование противодействия незаконной миграции в зарубежных странах: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2010. - С. 53, 67-89.
9. Хабриева Т. Я. Миграционное право России: теория и практика. - М., 2008. - С. 259.
10. Чугунова С. В. Регулирование легальной трудовой миграции из третьих стран по праву ЕС: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. - М., 2012. - С. 11 - 18.
11. Borjas G.J. Increasing the supply of labour through immigration, measuring the impact on native-born workers. Center for Immigration Studies, 2004. – R. 5 – 6.
12. European Convention on the Legal of Migrant Workers, Strasbourg, 24. XI. 1977.
13. Lahav G. Immigration and Politics in the New Europe: Reinventing Borders. Cambridge: Cambridge University Press. 2004 P. 210.
14. Rinne U. The Evaluation of Immigration Policies. IZA DP № 6369. Forschungsinstitut zur Zukunft der Arbeit. February 2012. 27 r.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

